

**BOLALARDA KUCHLI ANTIBIOTIKLARNI QO'LLASHDAGI
NOJO'YA TA'SIRLARI****MAMAJANOVA ERKINOY ABDURASULOVNA***Andijon viloyati, Andijon shahar Tibbiyot instituti
Farmatsiya fakulteti Biofarmatsiya fani o'qituvchisi***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada antibiotiklar o'rganilib tahlil qilindi. Antibiotiklar (anti-qarshi va bios–hayot) – ba'zi mikro-organizmlar (zamburug'lar, bakteriyalar), hayvon to'qimalari va ayrim yuksak o'simliklar hayot faoliyati natijasida hosil bo'ladigan va turli xil mikro-blarning o'sishi hamda rivojlanishini to'xtatadigan organik moddalar. Antibiotiklar terminini Amerika olimi Z. Vaksman mikroblarda hosil bo'lib, boshqa mikroblarga qarshi ta'sir etadigan moddalarga nisbatan taklif etgan. Antibiotiklar kasallantiruvchi (patogen) mikroblardagi moddalar almashinuvini buzib, ularni o'ldiradi yoki o'sishini to'xtatadi. Antibiotiklar turli mikroblarga turlicha ta'sir etadi. Mas, bir antibiotik ma'lum bir mikrobgga kuchli ta'sir etgani holda, boshqa mikrobgga kuchsiz ta'sir qiladi yoki butunlay ta'sir qilmaydi; Antibiotiklarning ko'pchiligi faqat mikroblarni emas, balki odam, hayvon va o'simlik organizmini (to'qima va hujayralarini) ham yemiradi.[1]

Key words: *Chlamydia pneumonia, morfologik, serovar, venerik, infektsiya, antibiotik, retikulyar, endotoksin, metabolik, uretran.*

KIRISH

1. Antibakterial antibiotiklar – bakteriyalarni o'sishi va ko'payishiga to'sqinlik qiladi. Makrolidlar, ritsomitsin (spontin), novobiotsin kabilar faqat gramm mikroblarga qarshi ta'sirga ega. Polimiksin faqat gramm mikroblarga ta'sir ko'rsatsa, tetrasiklin, levomitsin (xloramfenikoil, xloromitsetin), aminoglikozidlar (streptomitsin, novomitsin, kanamitsin, neomitsin, gentamitsin gramm va garammikroblarga birdek ta'sir kuchiga ega.

2. Antimikrob ta'sirga ega antibiotiklar zamburug'lar o'sishini to'xtatuvchi ta'sirga ega nistatin, levorin kabi antibiotiklar kandidoz kabi drojsimon patogen zamburug'larga qarshi tibbiyotda keng qo'llaniladi. Amfoteritsin B umumiy va chuqur mikozlarni oldi olishda qo'llaniladi. Ushbu preparatlar polienli antibiotiklar guruhiga kiradi. Poliensiz antibiotiklardan Grizeofulvin zamburug'larga qarshi kurashshda samarali hisoblanadi. 3. O'smaga qarshi antibiotiklar – Kimyoviy strukturasi ko'ra o'sma hujayrasini zararlovchi antibiotiklar quyidagi 6 guruhga bo'linadi: Birinchi guruh antibiotilari – yuqori zaxarli tabiatiga ega aktinomitsin klinikada buyraklar adinokartsiomasi va bolalarda Vilms o'smasiga qarshi kurashishda qo'llaniladi.[2]

Ikkinchi guruh antibiotikalari – antratsiklinlar ushbu guruh vakillaridan biri rubomitsin klinikada bachadon xorionepiteliomasini va o‘tkir leykoz kabi og‘ir kasalliklarni davolashda rubomitsin aksariyat holatlarda o‘sma to‘la klinik davolanadi. Uchunchi guruhga mansub bo‘lgan antibiotiklar tarkibida aureole kislotasini tutib, klinikada qo‘llaniluvchi ushbu guruhga mansub vakillaridan biri olivomitsin hisoblanib, tuxumdon o‘smasi va tonzillar, tez metastazlanuvchi hiqildoq o‘smalarini davolashda qo‘llaniladi. To‘rtinchi o‘smaga qarshi antibiotiklar SSSR tomonidan ushbu guruh vakillarida bruneomitsin yaratilgan bo‘lib asosan limfogramulematozni davoloshdan qo‘llaniladi.[3]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Antibiotiklar molekular ta‘sir mexanizmiga ko‘ra klassifikatsiyasi 1. Bakteriya hujayra qobig‘i sintezini to‘xtatuvchi (Pennitsilinlar, rinkomitsin, vankomitsin, novobiotsin, D-sikloserin va b.); 2. Bakteriya hujayrasining oqsil sintezini buzuvchi (tetrasiklin strukturasi javob beruvchi antibiotiklar, makrolidlar, levomitsin va h.k.); 3. Bakteriya hujayrasi oqsil sintezini to‘xtatuvchi va shu bilan bir vaqtda translatsiya jarayonida genetik kodni buzulish xususiyatiga ega antibiotiklar (aminoglikozidlar); 4. Bakteriya hujayrasida nukleotidlar sintezini to‘xtatuvchi antibiotiklar (Rifomitsinlar, o‘smaga qarshi antibiotiklar); 5. Zamburug‘ hujayrasi sitoplazmatik membranasi butunligini buzuvchi (zamburu‘ga qarshi ta‘sir kuchiga antibiotiklar polienlar). Antibiotiklar kimyoviy tuzulishiga ko‘ra klassifikatsiyasi 1. Betalaktamidlar 2. Glikopeptidlar; 3. Lipopeptidlar; 4. Aminoglikozidlar; 5. Tetrasiklin va (Glisilsiklinlar); 6. Makrolidlar va (Azalidlar); 7. Linkozamidlar; 8. Xloramfenikol (levomitsin); 9. Rifamitsinlar; 10. Polipeptidlar; 11. Polienlar; 12. Turli xil antibiotiklar (Fuzidieva kislotasi, fuzafungin, streptograminlar va h.k.).[4]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

A. Penitsillinlar tabiiy zamburug‘lardan va polisintetik yo‘llar orqali olinadi. Tabiiy benzilpenitsillin (penitsillin G) va uning tuzlari (K va Na) gramm musbat (Masalan: S. Pyogenes) kabi stafilokokli kasalliklarga qarshi ishlatiladi (o‘pka zotiljami, xo‘ppoz, endokardit, septisemiya kabilardan tashqari). Lekin, uning organizmdan tez chiqarib yuborilishi, kislotali muhitda parchalanishi, beta-laktam halqasini parchalovchi bakterial fermentlar-penitsillinazalar bilan faolsizlanadi. Polisintetik turli xil radikallari evaziga tabiiy penitsillindan keng ta‘sir doirasiga egaligi bilan ustunlik qiladi. B. Sefalosporinlar tarkibida sefalosporin S mavjudligi bilan boshqa antibiotiklardan farqlanadi. Sefalosporinlar quyidagi xususiyatlarga ega: bakteriatsid ta‘sir, organizm uchun kam zaharli tabiatga egaligi, keng ta‘sir doirasi, enterokokklarga qarshi ta‘sirsizligi, 10% kasallarda allergik reaksiyalarni qo‘zg‘atadi. C. Monobaktamlar - (aztreonam, tazobaktam va boshqalar) monosikli beta-laktamlar bo‘lib, tor ta‘sir doirasiga ega. Gramm manfiy bakteriyalarga qarshi

kurashishda samarali ta'sir ko'rsatadi shu jumladan, Pseudomonas aeruginosa va gramm manfiy koliform bakteriyalariga qarshi bakteritsid ta'sir ko'rsatadi.[5] D.Karbapenemlar - (imipenem, meropenem va boshqalar) sillinga qarshilik kuchiga ega bakteriyalar S.aureus va Enterococcus faecium kabilardan tashqari boshqa penitsillinlarga qaraganda kengroq ta'sir doirasiga ega. Karbapenemlar og'ir bakterial kasalliklar bilan og'irgan kasallarga shu bilan birga, turli xil antibiotiklarga chidamlilikka ega bo'lgan va bir necha patogen bakterialar chaqirgan kasalliklarni davolashda tavsiya etiladi.[6]

XULOSA

Hozirgi kunda yuqoridagi kasalliklarga qarshi polisintetik doksisisiklinlar foydalaniladi. Yangi tetrasiklinlar avlodi hisoblangan tetrasiklin analogi glitsilsiklinlarga tigesiklin kiradi. Glitsilsiklinlar ribasomalar bilan ancha kuchli bog'langan. Tigesiklin metisillinga qarshilikka ega stafilokokklar shtammlari va Acinetobacter spp. kabi ferment ajratmaydigan bakteriyalar, vankomitsin va penitsillinga qarshilik kuchiga ega bakteriyalar, enterobakteriyalardan boshqa gramm musbat va gramm manfiy bakteriyalarga qarshi keng ta'sir doirasiga ega. Ushbu preparat tabiiy tetrasiklinlarga nisbatan chidamlilikka ega bakteriyalarni ribasomalari bilan reaksiyaga kirishish xususiyatiga ega. P.aeruginosaga qarshilik xususiyati mavjud emas. Tetrasiklinlar bolalarning tish hujayralariga singishi sababli (qora tishlar sindromi) bolalar bakterial kasalliklarini davolash maqsadlarida foydalanilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rasulova Mukhsina Razikovna Forensic examination of fractures of the bones of the nose // European science review. 2018. №7-8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/forensic-examination-of-fractures-of-the-bones-of-the-nose> (дата обращения: 10.01.2023).
2. Индиаминов С., Расулова М. Критерии оценки степени тяжести повреждений носа // Журнал вестник врача. – 2019. – Т. 1. – №. 1. – С. 36-40.
3. Расулова Мухсина Розиковна, Давронов Самижон Фаттоевич Установление характера и оценка механизма при переломах костей носа // Судебная медицина. 2019. №S1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ustanavlennie-harakter-a-i-otsenka-mehanizma-pri-perelomah-kostey-nosa> (дата обращения: 10.01.2023).
4. Razikovna R. M. Forensic examination of fractures of the bones of the nose // European science review. – 2018. – №. 7-8. – С. 162-164.
5. Расулова, М., Юлаева, И., & Шодиев, Ж.. (2023). ПЕРЕЛОМЫ КОСТЕЙ НОСА В ПРАКТИКЕ СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 3(1 Part 1), 78–84. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/8607>
6. Shodievich S. H., Roziqovna R. M. OLIY O 'QUV YURTLARIDA MASHG 'ULOTLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY MAQOLALARNING O 'RNI // PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 25. – №. 1. – С. 52-55.